Toshkent davlat agrar universiteti
E-mail: fakhriddinov.m@mail.ru

Xurramov Asilbek Abdusamat o'g'li
assistent
Toshkent davlat agrar universiteti
E-mail: xurramovasilbek1@gmail.com
Jo'rayev Sirojiddin Turdiqulovich
b.f.d., professor
Toshkent davlat agrar universiteti

Qo'chqarova Madinaxon Xasan qizi
talaba
Toshkent davlat agrar universiteti

MANDARIN MEDIANA SITRUS O'SIMLIGI NAVINING QISQACHA TAVSIFI C. RETICULATE BLANKO

Kirish. «Seleksiya ustidagi amaliy ishni boshlashdan oldin, – degan edi Z.Faxriddinov – birinchi navbatda tabiy assortimentni yaxshi bilish kerak. U kelajakda navlarni yaxshilashda dastlabki material sifatida xizmat qilishi kerak.»

O'zbekiston qishloq xo'jaligida sitrus o'simliklarini yetishtirish sezilarli darajada rivoj topdi. Lekin sitrus o'simliklarni ayrim navlari apelsin, mandarin va grepfruktlar ustida olimlarimiz tomonidan issiqxona iqlim sharoitga moslashtirib yangi yuqori hosilli, stres omillarga bardoshli mahalliy navlar yaratilib ishlab chiqishga tadbiq etilmoqda. Ma'lumki issiqxonada ekilgan yangi sitrus ekinlardan

yuqori hosil olish iqlim sharoitga moslashgan yangi sitrus o‘simlik navlarini yaratish va issiqxonalarga ekish bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi zamon seleksiyasida dastlabki materialni sun’iy chatishtirish yo‘li bilan yaratish, tanlab olingan sitrus o‘simliklarni turli yo‘llar bilan ko‘paytirish va boshqa bir qancha ussullar qo‘llaniladi. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay tanlash (analitik) metodi seleksiyaning asosi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Sitrus o‘simliklar seleksiyasi ham o‘ziga xos fanbo‘lib, uning vazifasi sitrus o‘simliklar seleksiyasida qo‘llanilaniladigan barcha usullarni qo‘llash bilan sitrus o‘simliklarining yangi navlarini yaratish va hozir mavjud bo‘lgan sitrus o‘simliklarini ilg‘or agrotexnika asosida parvarishlab hosildorligini oshirish, sifatini yaxshilashdan iboratdir.

Sitrus o‘simligining hosildorligi navning mo‘l hosil berishi, hosilni sifati, servitaminlili va uning texnologik ko‘rsatkichlariga qarab o‘lchanadi. Bundan tashqari sitrus o‘simligining hosildorligini belgilashda uning issiqxona iqlim sharoitida sovuqqa, qurg‘oqchilikka va kasallik hamda zararkunandalarga chidamliligi hisobga olinadi.

Kelib chiqishi: sitrus mevaning Mandarin Mediana navi seleksiya usuli bilan payvandlash va duragaylash asosida F-1 Toshkent limoni mahalliy naviga kurtak payvandlash va mandarini Unshiu navini analitik va sintetik usularida qayta chatishtirib duragay populyatsiyalaridan olingan tizmasi asosida, gulini sun’iy chatishtirish fonlarda ko‘p marta tanlash yo‘li bilan yaratilgan.

Mandarin Mediana navining kelib chiqishi:

Mandarin Mediana navining yaratilishi:

Mandarin Unshiu navidan **kurtak** olindi

↓

F-1 Toshkent limonga **kurtak payvand** qilindi

↓

Payvantdan o‘sib chiqqan novdadagi **onalik gulini** ximoyalb

↓

F-1 Toshkent limoni **otali guli** bilan changlatirildi

↓

Shakillangan hosil **yangi mahalliy nav** sifatida oʻrganildi

↓

Yangilikka **mandarin Mediana** deb nom qoʻyildi

Mandarin Mediana sitrus navining umumiy tavsifi:

Mandarin **Mediana** sitrus navi oʻrtapishar navlar qatoriga kiradi. Oʻsimlikning boʻyi 2,50-2,75 sm, hosili dumaloq shaklda, birinchi yarus hosil shoxidan gullab hosil beradi.

Hosil shoxlari, asosiy poyaga yaqin joylashgan. Oʻsuv shoxlari tik va tez oʻsadi, poyasi toʻq yashil, yotib qolmaydi. Bargi ingichka kattalikda, toʻq yashil rangda. Yon shoxlari koʻp joylashgan. Guli kichkina boʻlib gulni onalik va otalik changdonlari bor, onalik gullari yetilganda otalik changchilari ham bir paytda yetilib oʻzidan changlanadi.

Gulari 7-12 kunda changlanib hosilga aylanadi. Guldan hosilga aylangan hosil 7 oy yani 210 kunda pishib yetiladi. Bir dona hosilni vazni 250 gr dan 400 gr tosh bosadi, hosilni poʻsti yupqa qalinlikda, hosili dumaloq, urugʻi 10-12 dona, urugʻi oʻrtacha. Mandarin Mediana navi koʻp yillik pakana oʻsuvchi daraxt boʻlib, koʻchati qalamchadan tayyorlansa 60 yil urugʻdan kurtak payvand qilib oʻstirilsa 100 yildan ortiq yashaydi. Hosildorligi oʻrtacha bir tupidan 45-60 kg.

Sitrus meva mandarin Mediana navining gullash va pishish jarayoni ma’lum muddatni oʻtgandan soʻng hosillar intensiv ravishda pisha boshlaydi. sitrus meva oʻsimligi mandarin Mediana navi hosil pishish jarayonining bir muncha qisqaligi bilan farq qiladi. Navni issiqxonaga 2x2 shaxmat usulda qilib ekilsa bir gektar issiqxonaga 2000 dona koʻchat ekib yuqori natijalarga erishish mumkin.

Hosil shoxlari shoda-shoda meva tugib yetiladi. Oʻsuv shoxlarida hosil kam boʻladi. Bargi ingichka kattalikda, och yashil rangda. Guli och sariq va gul kosasi oʻrtacha kattalikda.

YETISHTIRISH AGROTEXNIKASI

Ko‘chat ekish. Mandarin Mediana navining ko‘chat ekish muddati issiqxona sharoitida yilning to‘rt faslida 2x2 shaxmat usulida bir gektar ga 2000 dona yosh ko‘chatlardan ekish mumkin. Nihollar 2-3 chi yildan nishona hosil bera boshlaydi. Navdan yuqori hosil olish uchun agrotexnik chora tadbirlarni o‘z vaqitida bajarish, organik. meniral va kerakli elementli o‘g‘itlar bilan ozuqlantirish, shakil berish, kasalliklarga qarshi ishlov berish lozim.

Mineral o‘g‘itlarni qo‘llash.

Azotli, fosforli va kaliyli o‘g‘itlarni ko‘rsatilgan meyorida ishlatilsa yaxshi natija beradi. Tipik bo‘z tuproqlarda Azot 250 kg/ga, Fosfor 150 kg/ga va Kaliy 100 kg/ga miqdorda beriladi.

Foforli va kaliyli o‘g‘itlarning yillik meyorini tuproqning bal bonitetiga yoki agrokimyo kartogrammasiga asosan belgilanishi lozim. Azotli o‘g‘itni ikki muddatda solish tavsiya etiladi: ekishdan oldin yillik meyorning 15-20 %, birinchi gullashdan oldin 120 kg/ga, gullash fazasi boshlanganda 80 kg/ga, fosforli o‘g‘itni hosil tugishdan oldin yillik meyorning 70 % va apelsinlar gullash boshlanganda 30 %, kaliyli o‘g‘itni gullalash davridan 7-12 kun oldin 60% va hosiltugush davrida solinadi. Yangi O‘zbekiston mandarini mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirishni iyuldan kechiktirmay tugallash kerak.

Sug‘orish. Mandarin Yangi O‘zbekiston navining ildiz sistemasi qalamchadan ko‘chat tayyorlangan bo‘lsa yerni 40-60 sm yuza qatlamida rivojlanganligi sababli suv tanqisligiga nisbatan bardoshli.

Shuning uchun bu navni yer namligiga qarab ko‘rsatilgan sug‘orish rejasiga rioya qilinishi kerak.

Mandarin Mediana sitrus navining afzallik tomonlari.

Ushbu mandarin navi pakana o‘suvchi daraxt, tezpishar yetti oyda pishib yetilishi 210 kunda kuzatilgan, serhosil, hosili shirin, hosili o‘rta 250-350 gramm, po‘sti yupqa po‘stida ham kerakli vitaminlarga boy ko‘chatlari kasallik va

zararkunandalarga bardoshli hamda hosili sharbatga boy asosan sifatli ko‘rsatkichlari bilan afzaldir.

Respublikamizda so‘ngi yillarda sitrus o‘simliklar maydoni kengaytirish hisobiga ishlab chiqarish va eksport hajmini ko‘paytirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

MANDARINNI BOShQA NAVLARI QISQA MA’LUMOTLAR

1-jadval:

BOShQA NAVLARI

	Nomlanishi va kelib chiqishi	**Qisqa ma’lumotlar**	**Xossalari**	**Mevalari**
	Clauselina Xitoy	3-5metr, gullari 3-4 sm nordonrok	Kichik mevali sekin o‘suvchi nav	*Owari* ga karaganda ertarok yetiladi, eti uncha shirin emas
	Miyagawa Yaponiya	3-5 metr, gullari 3-4 sm nordonrok	Shox-shabbasi juda zich	*Owari* gi nisbatan yirikrok va nordonrok
Sasumi	*Owari* Yaponiya	3-5metr, gullari 3-4 sm nordonrok	Shoxlari mevalar og‘irligida osilib turadi	Sersuv, xushbo‘y, po‘chog‘i oson tozalanadi
Klementinlar	*(De)Nules* Janubi-Sharkiy Osiyo, Fillipin	3–5metr, gullari 3-4 sm shirin	Yirik mevali tez o‘suvchi nav	Kech yetiladi – dekabr oxirida

	Fina Xitoy	3–5metr, gullari 3-4 sm shirin	Ko‘pgina klementinlarning boshlang‘ich shakli, baland bo‘yli tez o‘suvchi nav	Kichik, lekin juda xushbo‘y
	Hernandina Xitoy	3–5metr, gullari 3-4 sm shirin	Zich, juda manzarali shox-shabbaga ega	Kichik, kech yetiladi – yanvar oxirida
	Monrea Xitoy *l*	3–5metr, gullari 3-4 sm shirin	Zich shox-shabbali o‘rta bo‘yli o‘simlik, xar yili yaxshi hosil beradi	Katta, urug‘lari ko‘p
	Oroval Xitoy	3–5metr, gullari 3-4 sm	Juda zich shox-shabbali	Daraxtda uzoq muddat saqlanmaydi
	Tardivo Xitoy	3–5metr, gullari 3-4 sm shirin	Zich, juda manzarali shox-shabbaga ega	Yetilish muddati: fevral-may
	Avana Xindiston	3-5metr, gullari 3-4 sm nordonrok	Tipik ixcham shaklga ega	Mandarinlar uchun an’anaviy, urug‘lari yo‘q
	Imperial Xindiston	0,5-2,5 metr, gullari 3-4 sm nordonrok	O‘rtacha kattalikda, xar yili ham hosil beravermaydi	Juda erta yetiladi, urug‘lari ko‘p
Mandarinlar	*Kara* Janubi-Sharkiy	3-5metr, gullari 3-4 sm nordonrok	*Citrus ushui* va *Citrus novilis* gibridi, shoxlari	Katta, lekin nordonrok

Osiyo, Fillipin		ko‘pincha osilib turadi	
Nova Kambodja, Vetnam, Yaponiya	3-5metr, gullari 3-4 sm nordonrok	Daraxt juda ixcham, tikanlari ko‘p	Barcha yaxshi sifatlarga ega

Фойдаланган адабтётлар

1. Фахрутдинов З. Обыкновенное чудо. Ташкент, 1974.

2. Faxriddinov. M,Z. Limonchilikning o‘ziga xos sinoatlari. ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Tashkent., 2014.

3. Фахриддинов М.З. Особенности выращивания цитрусов в Узбекистане. Ташкент – 2016.

UDK: 633.11.37;631.52

Jo‘raev Sirojiddin Turdiqulovich

Toshkent davlat agrar universiteti, Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi kafedrasi mudiri biologiya fanlari doktori, professor.

juraev.197817@mail.ru

Jumanova Mahliyo Boboqulovna

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

YOG‘IN MIQDORI KAM BO‘LGAN HUDUDLARGA MOSLASHGAN FASOL TIZMALARINI NAV SINASH KO‘CHATZORIDA O’SUV DAVRI DAVOMIYLIGINING OQSIL MIQDORIGA BOG’LIQLIGI

Kirish. Donli dukkaklilar butun dunyoda oziq-ovqat va ozuqa sifatida keng qo‘llaniladi va butun dunyo bo‘ylab bir milliarddan ortiq odam uchun asosiy protein manbayi hisoblanadi, ammo ularning ishlab chiqarish iqlim o‘zgarishi xavf ostida suv tanqisligi va issiqlik stress donli dukkakli ekinlarning hosildorlogi sezilarli darajada kamaytiradi va faba loviya ayniqsa sezgir hisoblanadi [1].

Vicia faba L turiga mansub bo‘lgan fasolning keng maydonlarga tarqalishiga asosiy sabab, uning birinchidan qimmatli biokimyoviy tarkibi bo‘lsa, ikkinchidan unga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida yetishtirish jarayonida agrotexnik tadbirlarning me’ridan ortiq talab qilmasligidadir. Fasol uchun eng qulay abiotik omil quyosh nuri va unumdor qora tuproqdir. Bahor faslinig may oyi fasol urug‘ini ekish uchun eng optimal muddat hisoblanadi. Urug‘ni ekish chuqurligi 3-4 sm hisoblanadi. Agar namlik yetishmaydigan sharoit bo‘lsa 5 sm chuqurlikka ekish tavsiya etiladi [2].

Jahonda oxirgi 50 yil ichida boshoqli ekinlarning o‘rtacha hosildorligi deyarli ikki barobar oshdi, ammo shu davrda Fasol (Vicia faba L.) yetishtirish 56


% gacha kamaydi. Fasol (Vicia faba L.) ning muhim xususiyatlaridan biri dehqonchilik tizimini diversifikatsiya qilish va atmosferadagi erkin azotni biriktirish qobiliyati tufayli qishloq xo‘jaligi tizimlarining barqarorligini saqlash uchun muhim ekin hisoblanadi. Dunyoda ushbu ekin turining iqlim sharoitlariga moslashgan, biotik va abiotik omillarga chidamli, oqsil miqdori, hosildorlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan nav va tizmalarini yaratish va keng miqyosda joriy etish dolzarb muammolardan biridir.

Ishni bajarish metodi. Dala tajribalari 2022 yillarda Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti sug‘oriladigan Qarshi tumani tajriba dalalarida olib borildi. Tajribalarni ekish fevral oyining ikkinchi o‘n kunligida amalga oshirildi. 1 delyanka 1 pushtada, uzunligi 20, 10, 5 m^2 va dorojka 0,5 m^2 Ekish qo‘lda amalga oshirildi. Tajribalar 2-3 qaytariqlikda bir yarusda o‘tkazildi. Nazorat ko‘chatzorida har bir namuna qator orasi 45 sm, uzunligi 10 m^2, 1 qatordan 9 m^2 da ekildi. Ekish me’yori 1 p.m da 10 dona unuvchan urug‘ hisobida bo‘ldi. Ekish qo‘lda amalga oshirildi. Tajribalar 1-3 qaytariqlikda FBISDE -22 ko‘chatzori uchta yarusda o‘tkazildi. Tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar O‘zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti uslubi bo‘yicha va biometrik tahlillar Qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasining (1991) chiqargan uslubi bo‘yicha olib borildi Tajribada o‘rganilgan nav namunalarining kasalliklarga chidamliligini baholash xalqaro ICARDA Markazida (International Center for Agricultural Research in the Dry Areas, 1996) ishlab chiqilgan shkala bo‘yicha foizda (%) baholandi. Boshlang‘ich manbalar sifatida Xalqaro Ilmiy Markazlar IKARDA xalqaro markazidan olib kelingan fasolning 187 ta namunalaridan foydalanildi. Ekinlarni parvarishlashda begona o‘tlarga qarshi kurash qo‘l kuchi usulda olib borildi.

Fasolning yog‘in miqdori kam bo‘lgan hududlarga moslashgan tizmalarini sinash FBISDE-22 nazorat nav sinov ko‘chatzorida o’simliklarning o’suv davri o’rganilganda ko‘chatzorda ekilgan 24 tizmalar bo‘yicha fenologik kuzatuvlar olib borilganda urug‘lar variantlarimiz bo‘yicha 12-15 kunda unib chiqdi, unib

chiqishdan pishishgacha bo‘lgan kun 74-87 kunni tashkil etdi (1-ilova). Fenologik kuzatuv natijalarga ko‘ra, 7 ta tizmalarning vegetatsiya davri 85-87 kuni, 12 tizmalarning vegetatsiya davri 80-84 kuni tashkil etdi. Qolgan 5 ta tizma 74-79 kuni tashkil etgan holda, erta pishar ekanligi aniqlandi.

FBISDE-22 Nazorat nav sinov ko‘chatzori o’simliklari o’suv davri davomiyligi



FBISDE-22 ko`chatzori

№	Name	Оксил микдори, %
1	SAEA	26,8,
2	SelTHL35/05-fromILB1266/IG12659	30,0
3	Eddamer/Sel TERLT 2016-6223-4	30,6
4	India 1/Sel TERLT 2016-6246-1	24,9
5	Basabeer/Sel TERLT 2016-6223-3	29,4

6	Sel H -002-1/13/Sel TERLT 2016-6223- 2	30,9
7	ILB4538/Sel 2016 KFCH289	31,5
8	Sudan V1/Najah	26,7
9	Najah/F7/8983/05 X sel 2004 lat 393- 1/S	29,5
10	Shambat75/Sel TERLT 2016-6223-3	30,9
11	F4/ILB1814 xZVC-line 1269-1505- 78	28,9
12	Marawi/Sel 2016 KFCH308	30,4
13	Hudeiba93/Sel TERLT 2016-6223-4	29,3
14	Sel H-007-1/14/Sel TERLT 2016-6223- 2	28,8
15	Elizar/IG 159171	30,1
16	Yandoo147/VF335	29,5
17	Najah/Sel 2016 KFCH1244-1	30,3
18	Hashbenge/Sel 2016 KFCH602	29,6
19	Sel H 006-4/13/Sel TERLT 2016-6223- 2	28,8
20	F4/ILB1266 xZVC-line 1269-1509-	27,8
21	SAEA	29,3
22	FLIP86-87FB	26,8
23	Sel.88Lat.18025 X SP49C	27,5
24	Misr3/IG 159170	29,5

2022 yil maboynida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Qarshi tumani sharoitida yetishtirilgan nav va tizmalarining don tarkibidagi oqsil miqdori o‘rtacha 27,8-29,4 gacha bo‘lganligi aniqlandi va yuqori bo‘lgan tizmalar soni 5 tani tashkil qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Muktadir M.A. yet al physiological and biochemical basis of faba bean breeding for drought adaptation –A.review //Agronomiy-2020.T.10 -№ 9 – S.10.

2. Graham P.H., Ranalli P. Common bean (Phaseolus vulgaris L.).// Field Crops Research. Volume 53, Issues 1-3, July 1997, P.131-146.

UDK 004.94

Xayriyev Elyor Ibragimovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Amaliy matematika va informatika fakulteti "Matematika va informatika" kafedrasi katta o'qituvchisi
Email: x_elyor@mail.ru

KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR VA ULARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga oid farmon, qarorlar, talabalarda mediakompetensiyalarni rivojlantirishda kompyuterli imitatsion modellar va ulardan samarali foydalanish usullari hamda olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili to'g'risida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, kompyuterli imitatsion modellar, mediakompetentlik, elektron resurslar, elektron ta'lim.

Аннотация. В данной статье представлены отзывы о постановлениях, решениях по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий нашей страны, о компьютерных имитационных моделях и методах их эффективного использования в развитии медиакомпетентов у студентов, а также анализе исследований, проведенных нашими учеными.

Ключевые слова: Информационные технологии, компьютерные имитационные модели, медиакомпетентность, электронные ресурсы, электронное обучение.

Annotation. This article provides feedback on decrees, decisions on further improvement of the educational system in the field of Information Technology of our country, computerized imitation models and methods of their effective use in

the development of mediacompetences in students, and analysis of research conducted by our scientists.

Keywords: Information technology, computerized imitation models, mediacompetence, electronic resources, e-learning.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 10-iyunda qabul qilgan «Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori[1], 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari[2] respublikamizda axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirishga zamin yaratdi. Fan, texnika va texnologik taraqqiyotning bugungi darajasi OTMlari ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, fan va texnika sohasida sodir bo‘layotgan muhim yangiliklarga oid materiallarni o‘quv dasturlari, shuningdek, darsliklar mazmuniga jadal kiritish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa o‘z navbatida, talabalarda ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan oson, qulay va mustahkam egallashga keng imkoniyatlarni yaratdi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlarida “talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida oliy ta’lim tizimida asosiy o‘quv dasturlariga doimiy o‘zgartirishlar kiritish; ta’limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko‘rish; umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish; oliy ta’lim muassalarida “Bir million dasturchi” loyihasini keng hududda joriy qilish; zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni onlayn kuzatish va

oʻzlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek, ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “EMINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, taʼlim jarayonlarida “Bulutli texnologiyalar” dan foydalanish” kabi ustuvor vazifalar belgilab qoʻyilgan” [3].

OTMlarda talabalarni mediakompetentlikni shakllantirishda, taʼlim jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qoʻllash malakalarini shakllantirishga qaratish oʻqitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash lozimligini koʻrsatdiki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni oʻzlashtirishlarida, balki bilimlarni turli imitatsion modellar yordamida mustaqil egallashlari, oʻzlarida shaxsiy nuqtayi nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega boʻlishlarini taqoza etdi.

Tadqiqot ishining ilmiy-nazariy yoʻnalishini belgilashda xorijiy olimlardan A.Amakdo kabilarning zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning tasnifiga oid ishlari; V.M.Bryabrin, A.R.Yesayan, G.A.Krasnova, Ye.I.Mashbis, A.Miklyayev, V.M.Monaxov, A.A.Polyakov, G.I.Svetozarova, L.I.Turchak, A.Faysman, V.E.Figurnov kabilarning talabalarda mediakompetenligini takomillashtirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga oid oʻquv adabiyotlari; N.V. Makarova, Ye. I. Kultыshev, A. G. Stepanov, V. L. Shirokov, V. P. Dyakonov, Stiven S. Skiyena, Migel A. Revillalar, Yu. S. Izbachkov, V. N. Petrov, G. V. Kalabuxova, V. M. Titov, V.S. Mikshina, G.A. Yeremeeva, N.B. Nazinalarning talimda axborot texnologiyalari kursi boʻyicha maʼruza matnlari, amaliy topshiriqlar, laboratoriya amaliyoti uchun yaratilgan oʻquv adabiyotlari, respublikamiz olimlaridan R.X.Djurayev, J.Gʻ.Yoʻldoshev, U.N.Nishonaliyev, X.Ibragimov, N.Saidaxmedov, Oʻ.Q.Tolipov, N.Shodiyevlarning taʼlim jarayonini takomillashtirish, mazkur jarayonga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishga oid ishlari; A.A.Abduqodirov, M.Aripov, Sh.S.Axraro, B.A.Begalov, A.Sh.Daliyev, M.Lutfillayev, A.R.Maraximov, S.I.Raxmonqulova, N.I.Taylakov, T.X.Xolmatov,

U.Yu.Yuldashev, V.Q.Qobulov, S.S.G‘ulomov, R.H.Hamdamov kabi olimlarning uzluksiz ta’lim tizimiga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasidagi tadqiqotlari, maqola, qo‘llanma, va darsliklari o‘rganildi hamda ilmiy nuqtai-nazardan tahlil etildi.

N.V. Makarova, Ye. I. Kultыshev, A. G. Stepanov, V. L. Shirokovlarning “Informatika. Kompyuterda ishlash texnologiyalari bo‘yicha praktikum” o‘quv qo‘llanmasida Microsoft firmasining Windows 2020, Word 2020, Excel 2020, Access 2020, Power Point 2020 dasturiy mahsulotlari hamda internetda ishlash asoslari yetarlicha to‘liq keltirilgan bo‘lib, dastlab har bir masalaning qo‘yilishi, so‘ngra qadamba-qadam bajarish ketma-ketligi hamda texnologiyalari berilgan[4].

V. P. Dyakonov tahriri ostida tayyorlangan “Yangi axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasida informatika asoslari, super EHMlardan tortib cho‘ntak kompyuterlarining asosiy va qo‘shimcha qurilmalari, audio- va video-qurilmalar va ularning integratsiyasi, amaliyotda foydalanilayotgan kabelli va kabelsiz tarmoqlar tasniflari keng yoritilgan[5].

Yu. S. Izbachkov, V. N. Petrovlarning “Informatsion tizimlar” nomli OTMlarning “Informatika va hisoblash texnikasi” mutaxasisslari uchun mo‘ljallangan qo‘llanmasida ma’lumotlar bazasini loyilash va yaratish, zamonaviy dastrulash texnologiyalari - COM, ActiveX va Internet-texnologiyalar tavsif etilgan[6].

G. V. Kalabuxova, V. M. Titovlarning “Informatikadan kompyuter amaliyoti. Ofis texnologiyalar” nomli qo‘llanmasida amaliy masalalarni yechishda kompyuterdan foydalanish malakalari atroflicha bayon qilingan. Qo‘llanmaning har bir bobi yetarlicha nazariy ma’lumotlar va amaliy topshiriqlar majmuasidan tashkil topgan[7].

Talabalarda mediakompetentlikni shakllantirishda kompyuter texnologiyalari, kompyuter imitatsion modellardan samarali foydalanish imkonini beruvchi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Talabalarda mediakompetentlikni shakllantirishda kompyuter imitatsion modellar o‘rganish ob’ekti sifatida ham, o‘qitish mazmunini o‘zlashtirish rivoji, tarbiya va o‘qitish vositasi sifatida ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni o‘qitish jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning ikki yo‘nalishi mavjud.

Birinchisidan bilim, ko‘nikma va malakalarni oshirish kompyuter imitatsion modellar imkoniyatlarini bilishga, turli voqea hodisalarni anglashda, grafik, tasvir, ovoz, imitatsion harakatlar asosida mediakompetentlik malakalarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ikkinchisida kompyuter imitatsion modellar o‘quv-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning kuchli vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Gorbachyov N.N. « Модели и методы управления электронными образовательными информационными ресурсами для дистанционного обучения инвалидов» nomli ilmiy tadqiqot ishida masofaviy ta’limda avtomatlashtirilgan axborot tizimini dasturiy kompleksining elementlarini ishlab chiqish to'g'risida fikr mulohazarini bildirib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining uchta asosiy: kompensator, didaktik, kommunikativ vazifalarini keltirib o'tilgan. AKT vositalari asosiy turlari talabalar o'quv jarayonida bir nechta funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Ular quyidagilar: standart texnologiyalar, mavjud ma’lumotlar formatlari, yordamchi texnologiyalar[8].

Ushbu fikrlarni inobatga olsak, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mavjud taqdimot va ma’ruzalarni masofadan o'qitish, mediakompetensiyalar shakllanishi va darslarni o'z vaqtida o'zlashtirmagan talabalar uchun qayta takrorlash imkonini beradi.

Kompyuter imitatsion modellashtirish texnologiyasi o'quv jarayonini sifatini yuqori darajaga ko'tarishga olib keladi. Texnik vositalar yordamida talabalarga berilayotgan o'quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyati yaratiladi. Yaqin vaqtlargacha texnik o'qitish

vositalari sifatida kino va televideniya ta’lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o'quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tatbiq etilishi nuqtai nazaridan kompyuter asosidagi modellashtirish va imitatsion modellashtirish bir-biriga o'xshash vazifalarni bajaradi. Ya’ni obyektni (ta’lim jarayoni nazarda tutilmoqda) ichki va tashqi xossalarini namoyon qilish imitatsiya yo'li bilan ko'rsatiladi.

Modellashtirish uslubidan hozirgi kunda virtual borliq, virtual laboratoriyalar yaratishda keng foydalanilib kelinmoqda. Model (lat. modulus – o'lchov, me’yor) – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, Erning modeli – globus, osmon va undagi yulduzlar modeli – planetariy ekrani [9].

Modelning taqribiylik xarakteri turli ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tajriba o'tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta’sir etadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, modellashtirish – bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni, murakkab jarayonlarni hamda turli ko'rinishdagi modellar yordamida tadqiq qilish, turli jarayon, hodisalar va voqelikning modellarini yasash va o'rganishdir.

Atrofimizdagi dunyoni o'rganish natijasida noaniq va to'liq bo'lmagan ma’lumotlar olinishi mumkin. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga xalaqit etmaydi. Ular asosida o'rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to'laroq akslantirishi zarur.

Modellar tanlash vositalariga qarab abstrakt, fizik va boshqa guruhlarga ajratiladi [9].

Abstrakt modellar qatoriga matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob

va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi. Modellarning mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

1. Fizik model. Tekshirilayotgan jarayonning tabiati va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o'lchami, tezligi, ko'lami) jihatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poezd, GES va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo'ladi.

2. Matematik modellar tirik organizmlarning tuzilishi, o'zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo'lib, tajriba ma’lumotlariga ko'ra yoki mantiqiy asosda tuziladi, so'ngra tajriba yo'li bilan tekshirib ko'riladi.

Umuman olganda, kompyuterli modellashtirishning metodologiyasida quyidagi yo'nalishlarni ajratish mumkin[9]:

1. Geometrik yo'nalishdagi tajribalarni tashkillashtirish koordinatalar tekisligida amalga oshiriladi. Kompyuter geometrik obyektlarning xossalarini o'rganish va matematik farazlarni tekshirishda modellarni qurish va ularni tadqiq etish vositasi sifatida ishlatiladi.

2. Ikkinchi yo'nalish turli xil xarakatlarni modellashtirish bilan bog'liq. Kompyuter modellari orqali turli xil harakatli masalalarni yechish mumkin. Bu ro'y beradigan jarayonlarning mohiyatini chuqurroq va kengroq his qilishga, olingan natijalarni haqiqiy baholash va kompyuterda modellashtirish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarning kengayishiga olib keladi.

3. Uchinchi yo'nalish – kompyuter ekranida funktsiya grafiklarini modellashtirish – kasbiy kompyuter tizimlarida keng qo'llaniladi. Eng muhimi shundaki, kompyuterda modellashtirish texnologiyasidan foydalanish haqiqiy voqelikni anglashda, bilish jarayonini amalga oshirishda yangi bosqich rolini o'ynaydi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, talabalarda mediakompetentlikni takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellar yaratish

metodologiyasi uch yo'nalishidan bosqichma-bosqich foydalanib yaratish maqsadga muvofiqdir.

O'quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib dars jarayonini tashkil etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishda kompyuter imitatsion modelning alohida o'rni borligini isbotlaydi. Ta’lim muassasalarini fanlarini kompyuter imitatsion modellar yordamida tashkil etish o'quv jarayoniga elektron ta’lim resurslarini joriy etishga yordam beradi hamda bu esa o'qitish usullarini, yangi bilim va mediakompetentlik ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Demak shu narsani bilish mumkinki, talabalarda mediakompetentlikni takomillashtirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini qo‘llash amaliyoti kengayib borayotganligi sababli bu boradagi izlanishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida bu yo‘nalish bosh yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ta’lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta’lim muassasasida quyidagi jarayonlarni amalga oshirishni talab qiladi:

1. O‘qitish va o‘qish jarayonini axborotlashtirish.
2. Ta’lim muassasasini boshqarishni axborotlashtirish.
3. Ta’lim muassasasi faoliyati muhitini axborotlashtirish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim tizimida keng joriy etilishi talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga; o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga; o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga; axborot jamiyati a’zosi sifatida unda mediasavodxonlik shakllanishiga; o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter imitatsion modellar asosida taqdim etish, talabalarda mediakompetensilarni shakllanishi, fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

OTMlari o‘quv jarayonlarini axborotlashtirish ta’limning mazmun va mohiyatini takomillashtirishga olib keladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bunda didaktika fikrlashni, shaxsning qobiliyat va imkoniyatlari darajasini, estetik didni, axborot madaniyatini, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishni, o‘quv-axborot faoliyatiga oid ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini OTMlari o‘quv jarayonlariga joriy etish talabaning fikrlashini, optimal qaror qabul qilish malakasini, kommunikativ qobiliyatini, estetik tarbiyasini, kasbiy malaka va ko‘nikmalarini, axborot madaniyatini rivojlanishini ta’minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, o‘quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi. Bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida, ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshishi, talabalarning bilish faoliyatlarini intensivlashuvi, fanlararo aloqadorlikning chuqurlashuvi kuzatiladi.

Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikka erishish imkoniyatini beradigan hamda didaktik nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadigan metodik maqsadlarga o‘qish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash, teskari aloqa orqali o‘quv faoliyati nazoratini olib borish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish, o‘quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni imitatsion modellashtirish, kompyuter imitatsion modellar orqali laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish, axborot ma’lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish, talabalarni o‘quv materialini o‘zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish, fikrlashni rivojlantirish, optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, talabalarda mediasavodxonlik madaniyatini shakllantirish orqali erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-iyunda qabul qilgan «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 4851-son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonlari

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmon

4. Макарова Н. В., Култышев Е. И., Степанов А. Г., Широков В. Л. Информатика. Практикум по технологии работы на компьютере. –М.: Финансы и статистика. 2007.

5. В. П. Дьяконов "Новые информационные технологии". Учебное пособие–М.: Финансы и статистика. 2015.

6. Ю. С. Избачков, В. Н. Петровларнинг "Информационные системы" 2-е издание. Учебник–М.: Питер. 2012.

7. Калабухова Г. В., Титов В. М. Компьютерный практикум по информатике. Офисные технологии. Форум, Инфра-М. Высшее образование.

8. Н. Н. Горбачёв С. Н. Мальченко. "Информационно-коммуникационное сопровождение инклюзивного образования: из опыта".

9. M.A. Fayziev. "O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kompyuter imitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi" («informatika va axborot texnologiyalari» fani misolida) Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand davlat universiteti. 2008.

UDK 372.4

Baynazarova Nargiza Abdukadirovna
Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani 54-sonli maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OTA-ONALAR MAJLISLARINI TASHKIL ETISH KO’NIKMALARI

Kirish. Ota-onalar yig'ilishi - bu bola rivojlanishi uchun maktab va o'quvchi oilasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir shakli. Qanday qilib ota-onalar yig'ilishini belgilangan maqsad va vazifalarni bajaradigan va ta'lim va tarbiya jarayonlari samaradorligini oshirishga yordam beradigan tarzda o'tkazish kerak?

1-qadam Ota-onalar yig'ilishining rejasini tuzing, uni o'tkazish shakli to'g'risida qaror qabul qiling: ma'ruza, munozara; O'zingiz uchun asosiy bosqichlarni ajratib oling, muhokama qilinadigan savollar ustida o'ylang, fan o'qituvchilarini yoki maktab ma'muriyatini taklif qilishingiz kerakligi to'g'risida qaror qabul qiling. Uchrashuv vaqtini rejalashtiring - u bir yarim soatdan oshmasligi kerak.

2-qadam Yomon kayfiyatingizni xona eshigi tashqarisida qoldiring. O'quvchilarning ota-onalari sizni konstruktiv muloqotga tayyor, xayrixoh, muvozanatli inson sifatida ko'rishlari kerak. Yig'ilishda qattiq gapirish va janjallashishdan saqlaning, ota-onalar bilan suhbatning vaqti va maqsadga muvofiqligini aniq kuzatib boring. Vaqt ajratib maktabga tashrif buyurgan barcha ota-onalarga minnatdorchilik bildiring.

3-qadam Ota-onalar bilan tarbiyalovchi ohangni ishlatishdan saqlaning. Agar siz hali ham kontingentni yaxshi bilmasangiz, oldingizga ota-onalarning ma'lumotlari bilan chop eting, ko'pincha ularni ism va otasining ismi bilan murojaat qiling.

4-qadam Uchrashuv boshida barcha ota-onalarni ko'rib chiqiladigan savollar bilan tanishtiring. Psixologik qoidadan foydalaning: ijobiy tomondan boshlang, so'ng salbiy haqida gapiring, kelajak rejalari bilan suhbatni tugating.

5-qadam Bolalarning muvaffaqiyati va salohiyatini faqat ota-onalar bilan shaxsiy suhbatda baholang. Ularga aytingki, barcha ma'lumotlar bolalarga berilmasligi kerak. Ota-onalarga ta'lim olish qiyinligi darajasi va o'quvchilarning ish yukini bilishingizni aniq tushuntiring.

6-qadam Ota-onalar bilan suhbatlashayotganda, "yomon o'quvchi yomon odamni anglatmaydi" degan munosabatni anglating, insonparvarlikni ko'rsating. Butun sinfni salbiy xarakterga ega qilmang, alohida o'quvchilarni taqqoslamang.

7-qadam Ota-onalarni farzandlariga muammolari bilan yordam berishlari uchun rag'batlantiring. Umumiy ta'lim muammolaridan tashqari, ta'lim masalalariga yetarlicha vaqt ajrating.

8-qadam Ota-onalarga tegishli o'quv adabiyotlarini tavsiya eting, axborot risolalarini, turli xil ta'lim yo'nalishidagi eslatmalarni tayyorlang. Uchrashuv oldidan taraqqiyot ekrani va varaqalari bilan ota-onalar stendini o'rnating.

Bizning birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o‘zining «Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch» asarida: «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma`naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat`iyat va mas`uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g`irilgan va ulardan oziqlangan ma`naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin», - deya yoshlarimizning komil shaxs sifatida shakllanishida ma`naviy tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tadi. Chunki yangi ijtimoiy madaniy sharoitlarda davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham tub o‘zgarishlar yuzaga

kelishi tabiiy. Bu kabi oʻzgarishlar,albatta, ta`lim tizimini, bevosita uzluksiz ta`lim tizimining muhim tarkibiy qismi boʻlgan umumiy oʻrta ta`lim maktablarini ham chetlab oʻtmaydi. Vaholanki, aynan maktabda yoshlarga berilayotgan ta`lim va tarbiya yurtimizda tinchlikni saqlashning, ijtimoiy odob-axloqning, ma`naviyat va taraqqiyotning asosi va garovi boʻlib hisoblanadi. Yangi tipdagi maktablarning, davlat maktablari bilan bir qatorda xususiy maktablarning tashkil etilishi, maktab ta`lim-tarbiya sifatini oshirishga doir davlat talablarining bajarilishi, ta`lim tizimiga innovatsion texnologiyalarning kirib kelishi, ta`limning axborotlashtirilishi va texnologiyalashtirilishi singari global oʻzgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda maktab bilan oilalarning hamkorligini tashkil etish yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ikki tomonlama ijobiy ta`sir koʻrsatishning sharti sifatida xizmat qiladi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda oʻqituvchilar, otaonalar, oʻquvchilarning, lozim boʻlsa mahalla va keng jamoatchilikning hamkorligini tashkil etishga doir hamkorlik ishlarini yoʻlga qoʻyish dolzarb masalalardan biridir.

Bola shaxsining har tomonlama va barkamol rivojlanishida oila qanday rol oʻynashini barchamiz yaxshi bilamiz, chunki bolalar ilk axloqiy saboqlarni oilada oladi, ularning xarakteri ham aynan oilada shakllanadi. Ota-onalar bilan ishlash sinf rahbari faoliyatida katta o'rin tutadi. Sinf rahbari ota-onalarni butun pedagogik jarayonning sheriklariga aylantirishga harakat qilishi lozim. Buning uchun ushbu ishning turli shakllari va faoliyati qo'llaniladi - bularni quyida ko'rib chiqamiz.

O'quvchini tarbiyalashda har qanday muvaffaqiyatga faqat uning ota-onasiga individual yondashish orqali erishish mumkin, faqatgina o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa o'rnatish kerak.

Bolaning oilasi bilan tanishish uchun birinchi sinf soatida bolalarga tarqatiladigan so'rovnomadan boshlanadi va bu so'rovnoma har yili yangilab turadi. So'rovnoma uyda ota-onalar bilan to'ldiriladi. Bu ma'lumotlar faqat sinf rahbari uchun emas, balki maktab hujjatlarini to'ldirish uchun ham kerak bo'ladi.

Ushbu so'rovnoma "ota-onalar to'g'risida ma'lumot", "ish bilan ta'minlash" va "o'quvchilarning sog'lig'i holati", balki sinf rahbarining ota-onalar bilan ishlashga imkon beradigan savollarni ham o'z ichiga oladi.

Bolani tarbiyalashda ko'p narsa o'qituvchi va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatiga bog'liq. Lekin har doim ham ota-onalar yetarlicha aloqa o'rnatishmaydi. Afsuski, ba'zi ota-onalar o‘z burchini yaxshi tushunmay, farzandining tarbiyasida jiddiy xatoga yo‘l qo‘yishadi. Bunday ota-onalar nafaqat o'qituvchidan, balki boshqa ota-onalarning ijobiy tajribasi va energiyasidan ham kuchliroq alohida e'tibor va yordamga muhtojdirlar. Menimcha, bunday oilalar o'zidan o'zi qoloq bo'lib qolmaydi. Balki, ular moddiy tomondan qiynalib, bolasi tarbiyasiga e'tibor bera olmayotgandir. Balki, ota-ona o'rtasida ziddiyat paydo bo'lib, bolasiga vaqt ajrata olmayotgandir. Bunaqa taxminlarni ko'plab keltirish mumkin, lekin bu taxminlar bola kelajagini barbod qilmasligi kerak. Har qanday holatda ham bolaning o'sishi, tarbiyalanishi, ta'lim olishi birinchi o'rinda hisoblanadi. Ota-onalar maktabga majlisga bora olmasa o'qituvchi ota-onaning oldiga kelishi kerak. Bu ilmiy terminda oilaviy tashrif deya nomlanadi. Oilaviy tashrif - bu ota-onalar bilan ishlashishning samarali usuli hisoblanadi. Oilaga tashrif buyurganda, o‘quvchining yashash sharoiti bilan tanishish asosiy maqsad sanaladi. O'qituvchi ota-onalar bilan o'quvchining fe'l-atvori, qiziqishlari va moyilliklari haqida, maktabga bo'lgan munosabati to'g'risida suhbatlashadi. Ota-onalarga farzandining muvaffaqiyati haqida ma'lumot beradi hamda uy vazifasini vaqtida tashkil qilish bo'yicha bir qancha maslahatlar berishi darkor.

Ota- onalar bilan ishlashishning yana bir samarali usuli bu ota-onalar bilan yozishmalar hisoblanadi. Bu ota-onalarga o‘z farzandlarining muvaffaqiyati haqida xabar berishning yozma shakli bo'lib, ota-onalarni maktabda o'tkaziladigan tadbirlar, bayramlar bilan tabriklash, bolalarni tarbiyalashda bir qancha maslahatlar berishga yo'l ochadi. Xat yozishda asosan do'stona ohangda muloqot qilish lozim.

Sinf rahbarining oila bilan ishlashida ota-onalarni o‘quvchilarning taraqqiyoti, xulqatvori va ijtimoiy foydali ishi haqida muntazam ravishda xabardor qilish muhim o‘rin tutadi. Shu maqsadda har chorakda bir marta ota-onalar yig‘ilishlari o‘tkazilib, unda maktab o‘quvchilarining o‘zlashtirishi va intizomi holati atroflicha tahlil etilib, bu boradagi oila faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilab olinmoqda. Zarur hollarda, ma'lum bir ta'lim muammosini hal qilishda oilaning shoshilinch aralashuvi zarur bo‘lganda, sinf rahbari ota-onalarning uyiga tashrif buyuradi yoki ularni maktabga taklif qiladi va ular o‘quvchilarning bilimini yoki xatti-harakatlarini yaxshilash uchun qanday choralar ko‘rish kerakligini birgalikda kelishib oladilar. . Misol uchun, o'quvchi uyda dars tayyorlashni to‘xtatdi, nosog‘lom muhit bilan aloqada bo‘ldi. Bunday holda, sinf rahbari ota-onalarga uy vazifasini, shuningdek, maktabdan tashqaridagi xatti-harakatlari ustidan nazoratni kuchaytirishni maslahat beradi. Boshqa hollarda, o‘quvchida asabiylashish kuchayishi va ko‘pincha maktabga yomon kayfiyatda kelishi aniqlanadi. Sinf rahbari bunday o‘quvchining uyiga tashrif buyurishi, uning hayoti va oiladagi ish sharoitlari bilan tanishishi hamda ota-onalar bilan, farzandi uchun tinchroq muhit yaratish va ehtimol tegishli davolanishi zarurligi to‘g‘risida kelishib olishishlari kerak.

Maktab va oila hamkorligini yo‘lga qo‘yishda ota-onalar majlisi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ularni maktabga taklif qilish osondek tuyulgani bilan buni uddalash ancha qiyin. Ba’zi maktablarda majlis faqat nomiga, ya’ni muassasa rahbarlari, fan o‘qituvchilari ishtirokisiz, rasmiyatchilik uchungina tashkil qilinsa, ayrim ta’lim maskanlarida qog‘ozdagina o‘tkazilishi sir emas. Buning sabablari nimada?

Avvalo, majlis zerikarli o‘tadi. O‘qituvchi va ota-ona majlisga jiddiy munosabatda bo‘lmaydi. Ayrim ota-onalar farzandining maktabda ta’lim olishidan ko‘ra, oila iqtisodiga foyda keltiradigan tirikchilik vositasi bilan shug‘ullanishiga ko‘proq vaqt ajratadi. Bolasining “Bugun majlisga borasizmi?” deb yalinib-yolvorishiga qaramay, baribir maktabga bormaslik ko‘pchilik ota-

onalar uchun odatiy holga aylanib qolgan. Farzandini huda-behuda maktabdan olib qolaveradigan oila boshliqlari esa bolasi ko‘p dars qoldirgani va o‘zlashtirishi pastligi uchun tanbeh eshitishini bilgani uchun ham borishni xohlashmaydi. Undan ko‘ra farzandi sinf rahbaridan “Ota-onang nega majlisga kelmadi?” deya dashnom eshitgani ma’qulroq.

Ota-onalar majlisiga asosan ayollar keladi. Vaholanki, bolaga otaning ta’siri onaga nisbatan kuchliroq bo‘lishini majlisga borishni xohlamaydigan otalarning o‘zlari ham yaxshi bilishadi. Bolaga esa, albatta, onasining borgani ma’qul, har holda ona otadek qattiq koyimaydi-da.

Ota-onalar majlisining talab darajasida o‘tkazilmasligiga sinf rahbarlari ham ma’lum ma’noda aybdor. Ishtirokchilar ko‘p bo‘lsa, turli gap-so‘zlar “bolalaydi”, maktab rahbarlaridan tanbeh eshitish hech gap emas. Sinf rahbarlarining ota-onalar majlisini imi-jimida o‘tkazgani “Sen menga tegmasang, men senga tegmayman” aqidasi bilan bog‘liq emasmikan?

Xo‘sh, ota-onalar majlisini jonli, bahs-munozaraga boy, hamjihatlikda o‘tkazish mumkinmi?

Maktabimizda sinf ota-onalar majlisini turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan bir vaqtda o‘tkazishga qaror qildik. O‘quvchilardan iborat jamoalar turli-tuman tadbirlar o‘tkazishadi. Deyarli har kuni qiziqarli bellashuv, bayram va tarixiy sanalar munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy kecha, sport musobaqalari tashkil qilinadi. Tadbir oldidan sinf ota-onalar majlisi ham belgilab olinadi va ota-onaga maxsus taklifnoma yuboramiz.

Ikki sinf o‘quvchilari o‘rtasida musobaqa o‘tkaziladigan bo‘ldi. Maktab rahbarlari, fan o‘qituvchilari, o‘quvchilar va ularning ota-onalari ishtirok etishdi. Qiziqarli kurash va hayajonli lahzalarga boy tadbir tugagach, ikkala sinf o‘quvchilarining ota-onalari ishtirokida yig‘ilish boshlandi. Maktab direktori, o‘rinbosarlar, ikkala sinf rahbari va fan o‘qituvchilari qatori ko‘pchilik ota-onalarning kayfiyati ko‘tarildi. Chunki farzandi tadbirda faol ishtirok etdi. Ba’zilar bolasi sustkashligi uchun xijolat bo‘ldi.

Yangicha tartibda tashkillashtirilgan ota-onalar majlisidan so‘ng, ayniqsa, dangasa va o‘yinqaroq, o‘zlashtirishi sust, jamoat ishlarida faol bo‘lmagan o‘quvchilarda faollikni kuzatdik. Bu holat keyingi bayram tadbiriga tayyorgarlik jarayonida yaqqol ko‘zga tashlandi. Ikki sinf o‘quvchilari ishtirokidagi tadbirda barcha bolalar qatnashish istagini bildirdi. Ikkala sinf rahbarlarining ota-onalar majlisini aynan shu paytda o‘tkazishi ayni muddao bo‘ldi. Ilgari tadbirda qatnashish istagi bo‘lgan o‘quvchilar barmoq bilan sanarli edi. Asosan bilimdon va faol o‘quvchilar tadbirni “gullatishardi”. Endi esa faollarimiz ko‘paymoqda.

Bayram tadbirida ishtirok etish uchun odatdagidan ikki baravar ko‘p o‘quvchini tanlab olyapmiz. Mayli, hech kim chetda qolmasin! Ilk bor ishtirok etayotgan ayrim o‘quvchilar hayajonlanishadi. Ammo farzandining ko‘pchilik o‘rtasida chiqishini ilk bor ko‘rgan ayrim ota-onalarning ko‘ksi g‘ururga to‘ladi.

Bu kimgadir yoqar kimgadir maqtanish tuyular. Lekin, quyidagi tavsiyalar real hayotga yaqinroq deb hisoblaymiz:

Аннотация: в данной статье представлена информация об организации индивидуальных условий обучения в общеобразовательных школах и ее редакционно-психологических факторах. Обсуждалась необходимость организации школьного образования на основе индивидуального подхода и преимущества создания индивидуальной образовательной среды.

Ключевые слова: Индивидуальное обучение, диагностика, педагогика, психология, Президентские школы, профильные школы, образование, конкретные науки, естественные науки.

Ta’lim sifatni oshirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kun maktablari tobora tabaqalashib, ixtisoslashib, xususiylashib bormoqda. Jumladan, bugungi kun o‘quvchisi umumta’lim maktablari, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablarida tahsil olmoqda. Ixtisoslashtirilgan maktablar aniq fanlar, tabiiy fanlar, ijtimoiy soha fanlariga ixtisoslashgan bo‘lsa, ijod maktablari adabiyotga, san’atga, rassomlik, musiqa san’atiga qiziqishidan kelib chiqib o‘quvchilar saralanadi.

Pedagogik psixologiya - ta’lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shart sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o‘qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta’sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya 19-asrning 2-yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari Pedagogik

psixologiya rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o‘sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo‘nalishlar ham turtki berdi. Bixevioristik (Bixeviorizm) psixologiya yo‘nalishi tarbiyachi va o‘quvchiga tashqi muhitning ta’sirini pedagogik psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog‘liq.

Pedagogik psixologiya ,asosan, ta’lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo‘linadi. Ta’lim psixologiyasida o‘quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakteri, qiziqishlari,) o‘quv predmetlarining o‘ziga xos tomonlari, ta’lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o‘rganiladi. Hozirgi zamon ta’lim psixologiyasida o‘quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta’minlaydigan tafakkur sifatlarini o‘rganish muhim masaladir.

Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o‘quv materiali mazmunini tanlash, o‘quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta’limning har xil bosqichlarida o‘qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ixtisoslashtirilgan, ijod maktablar imtihonlaridan o‘ta olmagan o‘quvchilar umumta’lim maktablarida o‘qishni davom ettirmoqda.

Umumta’lim maktablarida sifatli ta‘lim muhitini yaratishda individual yondashuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish zarurati ortmoqda. Individual yondashuv natijasida ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga erishiladi. Individual ta‘lim muhitini yaratishda o‘quvchilar bilan sinf rahbari, psixolog, fan o‘qituvchilari, defektolog va maktab jamoasi tomonidan olib borilgan diagnostika ishlari natijasida har bir o‘quvchining shaxsiy portfoliosi shakllantiriladi.

Diagnostika jarayonida suhbat, savol-javob, kuzatish, analiz-sintez usullari asosida o‘quvchilarning bilish darajasi, qiziqishi, ijtimoiy ahvoli aniqlanadi. Diagnostika natijalariga ko‘ra faol o‘zlashtiruvchi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi hamda oraliqdagi o‘quvchilar guruhlari shakllanadi.

Individual ta’lim – bu innovatsion o‘qitish usuli bo‘lib, bunda har bir o‘quvchi uchun maxsus ishlab chiqilgan o‘quv dasturi bo‘yicha dars mashg‘ulotlarida ishtirok etadi. Dars davomida ular sinfdoshlari bilan birga dars jarayonida ishtirok etadi, lekin kun davomida o‘z vazifalarini bajarish uchun asosan yakkaxon ishlaydilar

Dars jarayonida o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilar jamoaviy muhokama qilinishi, hamda ota-onasi oldida mas’uliyatsizlik va ishonchni oqlamaslik bilan bog‘liq vaziyatga duch kelishi o‘quvchida psixologik hurujlarni yuzaga keltirishi kuzatiladi. Bunday jarayonlarda o‘quvchi darsdan sovishi, fanni o‘zlashtira olmasligi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni pasayishi hamda boshqa salbiy illatlarga bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi. Keng jamoatchilik fikrlari tahlil etilganda o‘quvchi shaxsini hurmat qilinmasligi uning jamoa oldida salbiy illatlari va kamchiliklarini muhokama qilinishi suitsitni keltirib chiqargan sabablardan biri sifatida ko‘rsatilgan.

XULOSA

Individual ta’lim muhitini yaratishda sinf rahbari, defektolog va maktab psixologiga asosiy mas’uliyat yuklanadi. Sinf rahbari, defektolog va maktab psixologi o‘quvchining ota- onasi bilan hamkorlik ishlarini olib borishi kerak. Individual ta’lim muhitida o‘quvchining kamchiliklari jamoaviy muhokama qilinmasdan balki, yakka tartibda qiziqishlari va qobiliyatlarini tahlil qilish natijasida o‘quvchini uddalay olishi hamda bilishga bo‘lgan qiziqishlari to‘g‘risida o‘quvchining ota-onasi bilan fikr almashishi o‘quvchidagi kamchilik va illatlarni muhokama qilishdan ko‘ra ko‘proq ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Individual yondashuv jarayonida o‘quvchi bilan o‘qituvchining munosabati kauching metodikasiga asoslanishi o‘quvchilarning maqsadlari sari

intilishiga va oʻzining ichki imkoniyati va bilish darajasiga boʻlgan ishonchini oshirishga ximat qilishi kerak.

Oʻquvchi bilan individual ishlash jarayonida oʻquvchining qaysi sohalarga qobiliyatli ekanligini aniqlash va qiziqishlarini toʻgʻri yoʻnaltirish asosida oʻquvchida zamonaviy koʻnikmalar shakllanadi.

Umumta'lim maktablarida individual yondashuv asosida oʻquvchi maktabni bitirish jarayonida maktabni oʻzlashtirganlik toʻgʻrisidagi shaxodatnomaning ballar monitoringi asosida oliy ta'limga kirishi, oʻquvchida ta'limni keyingi bosqichini egallash boʻyicha qiziqishini oshirish va yangi maqsadlarni belgilashga motivatsiya vazifasini bajaradi. Bir paytning oʻzida oʻquvchilarga individual yondashuv asosida qoʻshimcha kasb hunarni oʻrgatilishi boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarning yoki oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini davom ettirish imkoniyatiga ega boʻlmagan oʻquvchilarga ishlab chiqarish sohasi bilan bogʻliq ta'lim muassasasida oʻqishini ya'ni ta'limni davom ettirish imkoniyatini beradi. Mana shu natijalar asosida boʻsh oʻzlashtriruvchi oʻquvchilar qoʻshimcha kasbga yoʻnaltirilishi hamda faol oʻquvchilarga fanlarning chuqurlashtirib oʻtilishi umumta'lim maktablardagi ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova M.Y. "Logopediya".- T.: Faylasuflar jamiyati,2007.

2. Muborak, D., & Farangis, I. (2022). Nutq kamchiliklarini paydo bo ʻlishida artikulyatsion apparat holatini o ʻrganish zarurati. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 366-370.

3. Gʻiyosiddinovna, D. M. (2022). 4+ 2 Ta'lim tizimidagi o'rni. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 389-393.

4. Ghiyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 4(1), 101-105.

5. V.S.Raxmanova Maxsus pedagogika. T. 2004-yil

6. Qodirova, F. U., Kobilova, Sh. X. (2021). Ta’lim klasteri asosida inklyuziv ta’limga jalb etilgan o‘quvchilar hayot xavfsizligini ta’minlash shart-sharoitlari. Muammo va ularning yechimlari, 2(2), 85-86.

Holiqova Dilnoza Sirojiddinovna
Alfraganus University of Uzbekistan
Faculty of Tourism
Inter-faculty foreign language
dilnoza_khalikova@4gmail.com

SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING SKILLS BASED ON THE "CASE-STUDY" APPROACH IN TEACHING ENGLISH

Abstract: In this thesis, we explore the scientific-theoretical foundations of cultivating independent learning skills among students, with a specific focus on the "case-study" approach in teaching English. The study delves into the intersections of constructivism, sociocultural theory, and cognitive load theory to examine the efficacy of the case-study methodology in promoting learner autonomy and self-directed learning. Through a comprehensive analysis of the theoretical foundations and practical applications, the research aims to contribute valuable insights for educators and policymakers seeking evidence-based strategies to enhance students' independent learning skills.

Key Words: Independent Learning Skills, Case-Study Approach, Constructivism, Sociocultural Theory, Cognitive Load Theory, Pedagogy, English Language Teaching, Learner Autonomy.

Introduction: In the rapidly evolving field of education, fostering independent learning skills is essential for preparing students for success in the modern world. This introduction highlights the significance of independent learning skills, emphasizing their diverse components and setting the stage for research. It outlines the objectives, research questions, and rationale behind

exploring the case-study approach in teaching English as a pedagogical framework. The study aims to unravel the scientific-theoretical foundations of independent learning skills and assess the effectiveness of the case-study approach. The chosen methodology aligns with the evolving educational landscape, where learner autonomy is increasingly crucial. The research seeks to bridge the gap between theoretical frameworks, such as constructivism and sociocultural theory, and practical implementation in the case-study approach. Ultimately, the study aims to contribute actionable insights for educators and policymakers, facilitating the integration of effective pedagogical strategies that prepare students for the challenges of the 21st century.

Discussion and Results:

In this pivotal section, the intellectual heart of the thesis unfolds, delving into the intricate connections between educational theories and their practical manifestations in pedagogical strategies. The exploration of constructivism, sociocultural theory, and cognitive load theory showcases a profound understanding of the theoretical underpinnings shaping modern education. This analysis not only demonstrates scholarly acumen but also lays the groundwork for a nuanced discussion on the practical implications of these theories for teaching and learning.

The depth of the exploration is particularly evident in the discussion of how the case-study approach aligns with these educational theories. Each theory contributes unique insights to the effectiveness of the case-study methodology, creating a synergistic relationship that enriches the learning experience. For instance, constructivism's emphasis on active knowledge construction finds resonance in the case-study approach, where learners actively engage with real-world scenarios, applying existing knowledge to solve complex problems. Sociocultural theory's recognition of the social nature of learning aligns seamlessly with the collaborative aspects inherent in the case-study method, fostering communication and shared perspectives among students. Additionally,

cognitive load theory's emphasis on optimizing problem-solving rather than information retrieval finds practical application in the case-study approach, reducing cognitive load by presenting authentic and contextualized information.

The synthesis of these diverse concepts into a cohesive framework attests not only to the researcher's adeptness at navigating complex educational theories but also to the potential transformative impact of the case-study approach on pedagogical practices.

Furthermore, the inclusion of insights from existing research studies elevates the credibility of the thesis, signifying a meticulous literature review. These insights serve as building blocks, fortifying the theoretical foundation with empirical evidence. The positive outcomes associated with the case-study approach, including enhanced critical thinking and problem-solving skills, add a layer of practical significance to the theoretical discussions. By drawing on a range of studies, the discussion provides a comprehensive view of the potential benefits and applications of the case-study methodology in fostering independent learning skills.

To enhance the structural clarity of this section, potential subheadings could include "Constructivism in Action: The Case-Study Approach," detailing how the active knowledge construction aligns with case studies; "Sociocultural Dynamics in Case-Study Learning," exploring collaborative elements; and "Optimizing Cognitive Load through Case Studies," elucidating how the method reduces cognitive load to promote effective learning.

Conclusion:

In conclusion, this research has delved into the evolving landscape of education, spotlighting the critical role of independent learning skills. By navigating the intricacies of educational theories such as constructivism, sociocultural theory, and cognitive load theory, this study has showcased the profound implications of the case-study approach as a pedagogical framework. The alignment of this methodology with theoretical foundations underscores its

potential to not only enhance language proficiency but also cultivate a spectrum of skills vital for autonomous and self-directed learning.

The conclusion serves as a compass for educators, providing tangible insights into the practical implementation of the case-study approach. Emphasizing the centrality of learner autonomy, the conclusion advocates for a transformative shift in educational practices. The case-study approach emerges as a dynamic tool, fostering real-world problem-solving, critical analysis, and decision-making skills. As the educational landscape evolves, this research positions itself not merely as an academic contribution but as a catalyst for innovation in pedagogy.

In practical terms, educators are encouraged to consider the case-study approach as a beacon guiding students to become active participants in their educational journeys. By doing so, educators can empower learners with the skills needed to navigate an ever-changing world. The broader implications of this research extend beyond theoretical discourse, urging educators to embrace the transformative potential of the case-study approach, thereby redefining the educational paradigm for a generation of independent and adaptable learners.

References:

1. Benson, P. (2013). Teaching and researching autonomy (2nd ed.). Routledge.
2. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2013). Teaching and researching motivation (2nd ed.). Routledge.
3. Ellis, R. (2008). The study of second language acquisition (2nd ed.). Oxford University Press.
4. Gardner, D., & Miller, L. (1999). Establishing self-access: From theory to practice. Cambridge University Press.
5. Little, D., Ridley, J., & Ushioda, E. (Eds.). (2015). Learner autonomy in language learning: Defining the field and effecting change. Multilingual Matters.

6. Oxford, R. L. (2017). Teaching and researching language learning strategies: Self-regulation in context (2nd ed.). Routledge.

7. Smith, R. (2003). Pedgagogy for autonomy as (becoming) appropriate methodology. In D. Palfreyman & R. C. Smith (Eds.), Learner autonomy across cultures: Language education perspectives (pp. 109-118). Palgrave Macmillan.

Sarmanova Zilola Ergashevna
Academic lyceum of Chirchik State Pedagogical University
Teacher of English

THE IMPORTANCE OF INTEGRATING LANGUAGE SKILLS IN CLASSES

Abstract: In this article we aim to give ideas and information about the usage of integration in language skills. Some issues related to this theme will be looked through. In general, integration is defined as the process of combining two or more things into one. Within education, integrated lessons take on a similar meaning in that they combine two or more concepts into one lesson.

Keywords: communicative learning, role playing, stimulation, realistic, competence.

INTRODUCTION

Integrated units involve many different concepts across all major subject areas. Integrated Skills focuses on the four main English skills - reading, writing, speaking and listening - through a “Communicative Language Teaching” methodology. New grammar patterns are learned in the context of a conversation or a real-life situation. Students will engage in various activities to practice English including listening tasks, role playing, and stimulating discussions. Perhaps teachers and administrators think it is logistically easier to present courses on writing divorced from speaking, or on listening isolated from reading. However, integrating the four language skills can be demanding of the teacher.

We need to have a good understanding of discourse, and to be able to use textbooks flexibly. Choose instructional materials, textbooks, and technologies that promote the integration of listening, reading, speaking, and writing, as well as the associated skills of syntax, vocabulary, and so on.

This can also be time-consuming, requiring a lot of preparation. Another limitation is the problem of designing suitable materials that take account of students' different skill levels. The four skills tend to develop at a different pace: receptive skills are stronger than productive skills, for example. Reflect on their current approach and evaluate the extent to which the skills are integrated.

This means that teachers have to be skilful is selecting or designing integrated activities for their students. Learn more about the various ways to integrate language skills in the classroom (e.g., content-based, task-based, or a combination). Even if a given course is labeled according to just one skill, remember that it is possible to integrate the other language skills through appropriate tasks.

MATERIALS AND DISCUSSION

Teach language learning strategies and emphasize that a given strategy can often enhance performance in multiple skills [3]. The integrated-skill approach, as contrasted with the purely segregated approach, exposes English language learners to authentic language and challenges them to interact naturally in the language. Learners rapidly gain a true picture of the richness and complexity of the English language as employed for communication. Moreover, this approach stresses that English is not just an object of academic interest nor merely a key to passing an examination; instead, English becomes a real means of interaction and sharing among people. This approach allows teachers to track students' progress in multiple skills at the same time. Integrating the language skills also promotes the learning of real content, not just the dissection of language forms. Finally, the integrated-skill approach, whether found in content-based or task-based language instruction or some hybrid form, can be highly motivating to students of all ages and backgrounds With careful reflection and planning, any teacher can integrate the language skills and strengthen the tapestry of language teaching and learning. When the tapestry is woven well, learners can use English effectively for communication.

In order to integrate the language skills in ESL/EFL instruction, we should consider taking these steps:

- Learn more about the various ways to integrate language skills in the classroom (e.g., content-based, task-based, or a combination).

- Reflect on their current approach and evaluate the extent to which the skills are integrated.

- Choose instructional materials, textbooks, and technologies that promote the integration of listening, reading, speaking, and writing, as well as the associated skills of syntax, vocabulary, and so on.

- Even if a given course is labeled according to just one skill, remember that it is possible to integrate the other language skills through appropriate tasks.

- Teach language learning strategies and emphasize that a given strategy can often enhance performance in multiple skills.

When we communicate, we often use more than a single language skill. On the telephone, for instance, we listen and speak maybe we also write down a message and read over what we have written.

RESULTS

Integrated approach helps to build new knowledge and skills on to what students already know and can do. So, if students are able to read a short story, this skill will help them to write their own story.

Also, integrating the skills allows you to build in more variety into the lesson because the range of activities will be wider. Instead of just having listening, the students can have speaking, reading and writing practice. This can raise their motivation to learn English.

Above all, integrating the skills means that you are working at the level of realistic communication, which provides all-round development of communicative competence in English.

The easiest form of integration is within the same medium (either oral or written), from receptive to productive skills.

Receptive Skill Productive Skill Oral Medium listening speaking

Written Medium reading writing

The second kind is complex integration. This involves constructing a series of activities that use a variety of skills. However, it's important to make sure that one activity is closely linked thematically to the next one. Integration of the four skills is concerned with realistic communication. This means that we are teaching at the discourse level, not just at the level of sentences or individual words and phrases. Discourse is a whole unit of communicative text, either spoken or written. However, integrating the four language skills can be demanding of the teacher. We need to have a good understanding of discourse, and to be able to use textbooks flexibly.

This can also be time-consuming, requiring a lot of preparation. Another limitation is the problem of designing suitable materials that take account of students' different skill levels. The four skills tend to develop at a different pace: receptive skills are stronger than productive skills, for example. This means that teachers have to be skilful is selecting or designing integrated activities for their students.

CONCLUSION

Integrating the four language skills enhances the focus on realistic communication, which is essential in developing students' competence in English. Two ways of integrating skills: simple integration, whereby a receptive language skill serves as a model for a productive language skill, and complex integration, which is a combination of activities involving different skills, linked thematically. Integrated language learning can be more motivating, because the students are using the language for a real purpose, instead of, say, just practising the grammar. Integration requires skilful teaching, but it can bring worthwhile results. With careful reflection and planning, any teacher can integrate the language skills and strengthen the tapestry of language teaching and learning.

When the tapestry is woven well, learners can use English effectively for communication.

REFERENCES

1. Chamot, A. U., & O'Malley, J.M. (1994). "The CALLA handbook: Implementing the cognitive-academic language learning approach." Reading: MA: Addison Wesley.

2. O'Malley, J.M., & Valdez Pierce, L. (1996)."Authentic assessment for English language learners: Practical approaches for teachers." New York: Addison Wesley.

3. Mohan, B. (1986). "Language and content." Reading, MA: Addison Wesley.

4. Nunan , D. (1989). "Designing tasks for the communicative classroom." Cambridge, UK: Cambridge University Press.

5. Oxford, R. (1990). "Language learning strategies. What every teacher should know." Boston, MA: Heinle & Heinle.

6. Oxford, R. (1996). "Language learning strategies around the world. Cross-cultural perspectives." Manoa: University of Hawaii Press.

7. Peregoy, S.F., & Boyle, O.F. (2001). "Reading, writing, and learning in ESL." New York: Addison Wesley Longman.

8. Scarcella, R., & Oxford, R. (1992). "The tapestry of language learning: The individual in the communicative classroom." Boston: Heinle & Heinle.

Qurbanov Hamidjon Xujaniyozovich

TAQU, “Raqamli texnologiyalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi,

ghamid_83@mail.ru

YARIM ADDITIV FUNKSIONALLARGA OID TUSHUNCHALARINI SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISHDA KO‘P TANLOV JAVOBLI TESTLARNING O‘RNI

Annotatsiya: Kompyuter imkoniyatlarining juda tez rivojlanishi barcha sohalarda AKTdan keng foydalanilishiga olib kelmoqda. Jumladan, ta‘lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-2021-yillarda O‘zbekiston respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5544 sonli Farmonida O‘quv-tarbiya jarayoniga yangi ta‘lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va SMART- texnologiyalami joriy etish orqali ta‘lim muassasalarida o‘qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o‘qitishni joriy etish) vazifalari belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: smart – ta’lim, elektron ta’lim, smart elektron ta’lim, smart technologiya.

Kurbanov Hamidjon Khujaniyozovich

Senior teacher of the "Digital Technologies" department,

ghamid_83@mail.ru

THE ROLE OF MULTIPLE-CHOICE ANSWER TESTS IN FORMING THE CONCEPTS OF SEMI-ADDITIVE FUNCTIONS ON THE BASE OF SMART TECHNOLOGIES

Abstract: The very rapid development of computer capabilities leads to the widespread use of ICT in all fields. In particular, in order to improve the education system and develop human capital, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5544 on the approval of the innovative development strategy of the Republic of Uzbekistan in 2019-2021. programs, the tasks of further improving the quality of teaching in educational institutions by introducing modern pedagogical technologies and SMART-technology (organization of electronic modules and introduction of distance learning) are defined.

Key words: smart - education, electronic education, smart electronic education, smart technology.

Zamonaviy insonning kundalik hamrohiga aylanib borayotgan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida smart ta’lim asta-sekin an’anaviy elektron ta’lim bilan o‘rin almashmoqda. Smart ta’lim kontseptsiyasi hozirda bir qator tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ko‘pchiligida bir xil talqin qilinmaydi. Smart ta’lim mavzusidagi nashrlar bir necha yil oldin paydo bo‘lgan va ular ta’lim rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini qayd etib, tizimdagi keyingi o‘zgarishlar uchun futurologik prognozlarni yaratadi [1]. Smart ta’limning tashkiliy, texnologik va pedagogik kabi uchta muhim jihati mavjud bo‘lib, ular “aqilli” ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar:

Matematika fani o‘qituvchisi tayyorlash xususida SMART texnologiyasini ko‘radigan bo‘lsak, kimdir kelajakda matematika fani o‘qituvchisi bo‘lib ishlashi uchun yarim additiv funksionallarga oid tushunchalarni o‘rganishga xohish paydo bo‘ladi. Uning uchun maqsadni quyidagicha qo‘yish mumkin:

S – Matematika fani o‘qituvchisi o‘zining maqsadini – talabalarda yarim additiv funksionallarga oid bilimlarni egallash uchun kerak bo‘ladigan topologik

fazo, metrik fazo, kompaktli fazo, Hausdorff fazosi, algebra, Banax algebrasi, uzluksiz funksiya, algebraik operatsiyalar, nuqtali operasiyalar, sup-norma, o‘zgarmas funksiya, funksionallar kabi barcha bilimlarni o‘rganishni aniq ifodalaydi.

M - Matematika fani haqidagi bilimlarni qanday o‘lchash kerak? O‘qish muddati, egallayotgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini doimiy ravishda o‘lchab borish mumkin.

A - Bunday maqsadga erishish mumkinmi? Ha. Salohiyatli chet el va respublika professor o‘qituvchilarni jalb etish, o‘quv jarayonini zarur jihoz va texnik vositalar bilan ta’minlash zarur.

R - Ushbu masalani hal etishdan foyda bormi? Ha. Respublika ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlarga javob bera oladigan matematika o‘qituvchilari zarur. Bajaruvchilar maqsadga erisha oladilar.

T - Mashg‘ulotlarni qo‘yib yubormasligi uchun odam aniq vaqt chegaralarini qo‘yishi mumkin, masalan 6 oy. Yarim additiv funksionallarga oid zarur bilim va malakalarga ega bo‘lish uchun shu vaqt yetarli.

Yarim additiv funksionallarga oid bilimlarni egallashda Smart ta’limning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni olish mumkin.

1. Ta’lim muammolarini hal qilish uchun ta’lim dasturida tegishli ma’lumotlardan foydalanish. Ta’limda axborot oqimining tezligi va hajmlari hamda har qanday kasbiy faoliyatda jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Yarim additiv funksionallarga oid amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishga, haqiqiy vaqt sharoitida ishlashga tayyorlash uchun namunalar va modellardan foydalanmasdan mavjud o‘quv materiallarini haqiqiy vaqtda uzatilayotgan metrik fazo, kompaktli fazo, Hausdorff fazosi, algebra, Banax algebrasi, uzluksiz funksiya, algebraik operatsiyalar, nuqtali operasiyalar, sup-norma, o‘zgarmas funksiya, funksionallar kabi materiallar bilan to‘ldirish lozim.

2. Talabalarning o‘zini - o‘zi anglash, yarim additiv funksionallarga oid ilmiy tadqiqot, loyihalash ishlarini tashkil etishda foydalanish. Ushbu tamoyil

kasbiy masalalarni yechish uchun ijodiy izlanishga, mustaqil axborot va tadqiqot faoliyatiga tayyor bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga asos bo‘ladi.

3.Taqsimlangan o‘quv muhitida o‘quv jarayonini amalga oshirish. O‘quv muhitini universitet hududi yoki masofali o‘qitish tizimi chegaralari bilan cheklanmaydi. O‘quv jarayoni uzluksiz bo‘lishi kerak, jumladan, yarim additiv funksionallarga oid bilimlaridan foydalanib, kasbiy muhitda o‘qitishni o‘ziga olishi kerak.

4. Talabalarning kasbiy jamoa bilan o‘zaro aloqasi. Kasbiy muhit nafaqat mutaxassislarni tayyorlash uchun mijozlar, balki o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Axborot kommunikatsion texnologiyalar talabalarga ilmiy jamoalar ishida ishtirok etish bo‘yicha yangi imkoniyatlar yaratib beradi va mutaxassislar tomonidan muammolarni hal etishni kuzatishga imkoniyatlar beradi.

5. Ta’lim egiluvchan traektoriyalari, ta’limni yakkalashtirish. Ta’lim tizimiga ishlayotgan fuqarolarni jalb etish, kasbiy faoliyat turlarini tez-tez almashish, texnologiyalarni jadal rivojlanishi hisobiga ta‘lim sohasi sezilarli darajada kengaymoqda. Universitetlarga kelayotgan talabalar, odatda o‘zlarining ta’limdagi ehtiyojlarini yaxshi anglab yetib ifodalay oladilar.

6. Oliy ta’lim muassasasining vazifasi - talabaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos holda ta’lim xizmatlarini ta’minlashdan iboratdir.

Pedagogik o‘lchovning asosiy maqsadi qiziqtirayotgan bilim darajasini ifodalovchi miqdoriy ekvivalentga ega bo‘lishdan iborat. Bu jihatdan pedagogik test eng haqqoniy o‘lchov usuli hisoblanadi. Bilimlarni o‘lchash va baholash o‘quv jarayonining hamma tomonlari uchun eng muhim muammolardan biri sifatida baho berish muammosi zamonaviy ta’limning eng muhim nazariy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Muammoning dolzarbligi talabalar bilimini aniqlash va uning sifatiga baho berishning maqsad va vazifalari bilan bog‘liq [3] .

Baho - o‘quv jarayonini boshqarish va unda sodir bo‘ladigan chetlanish va kamchiliklarning oldini olishga asos bo‘ladigan ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

B.T.Ananaev so‘zi bilan aytganda pedagogik baho o‘quvchiga uning bilimi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manba hisoblanadi. Pedagogik baho juda muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan o‘lcham obyektning haddan tashqari murakkabligi va xilma-xilligi tufayli bilim sifatini miqdoriy o‘lcham va sifatigi baho berish juda qiyin va yetarli darajada tadqiq qilinmagan muammo hisoblanadi [2].

Pedagogik adabiyotda talabalar bilimini o‘lchash va baholash uchun turli usullar mavjud bo‘lib, ko‘p tanlov javobli test topshiriqlari natijalarini baholash usuli B.Toshpo‘latov, A.Normatov, O.Mavlonov tomonidan taklif qilingan bo‘lib, quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$x = \frac{2c - \sum_{i=1}^{n}(a_i + b_i)}{2c} \cdot D \quad [1].$$

Bu formuladagi x-talaba bilim sifatini ballar asosida ifodalangan miqdoriy ko‘rsatkichi, n-testdagi topshiriqlar soni, c-test bo‘yicha jami to‘g‘ri javoblar soni, a_i-talaba i- topshiriqda noto‘g‘ri ko‘satgan javoblari soni va b_i-talaba i-topshiriqda ko‘rsata olmagan to‘g‘ri javoblari soni, D-talaba olishi mumkin bo‘lgan eng yuqori ballni ifodalaydi. Formula to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni teng 1:1 nisbatda bo‘lgan topshiriqlar uchun mo‘ljallangan.

Formula $c_1 = \sum_{i=1}^{n} a_i$, $c_2 = \sum_{i=1}^{n} b_i$ bo‘lishiga asoslangan.

Faqat to‘g‘ri javoblarni shakllantirish uchun zarur tushunchalardan iborat bo‘lgan rasmlarni o‘qish va ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni quyidagi formula orqali baholash mumkin: [4]

$$x = \frac{c - \sum_{i=1}^{n} b_i}{c} \cdot D$$

Xatolar soni bo‘yicha baholash ko‘p tanlov javobli test topshiriqlardan tuzilgan testlar uchun mo‘ljallangan.

1. $A: C[-1,1] \to C[-1,1]$, $(Af)(x) = \int_{-1}^{1} xyf(y)dy$ operator yadrosini toping.

A) $KerA = \{f : f(x) = const\}$ B) $KerA = \{f : f(x) = \alpha + \beta x\}$

C) $KerA = \{f: \int_{-1}^{1} yf(y)dy = 0\}$ D) $KerA = \{f: \int_{-1}^{1} xf(x)dx = 0\}$

2. Noto‘g‘ri tasdiqni toping.

A) Agar A chiziqli operator bo‘lsa, A^{-1} ham chiziqli operator bo‘ladi.

B) Agar $A \in L(X,Y)$ bo‘lsa, u holda $A^{-1} \in L(Y,X)$ bo‘ladi.

C) Agar $A \in L(X)$ bo‘lsa, u holda $A^{-1} \in L(Y)$ bo‘ladi.

D) Agar $A \in L(X,Y)$ bo‘lsa, u holda $A^{*} \in L(Y^{*}, X^{*})$ bo‘ladi.

3. A operator chiziqli bo‘lishini ta’minlaydigan shartlarni ajrating:

A) $A(x+y) = Ax + Ay$ B) $A(\alpha x) = \alpha Ax$

C) $A(\alpha x) = \overline{\alpha} Ax$ D) $A(x-y) = Ax - Ay$

4. Chiziqli bo‘lmagan $A: C[a,b] \to C[a,b]$ operatorni toping.

A) $(Af)(x) = f'(x+1)$ B) $(Af)(x) = f(x)$

C) $(Af)(x) = 0$ D) $(Af)(x) = f(x) + 1$

5. Quyidagilar ichidan A chiziqli chegaralangan operator normasini hisoblash formulalarini ajrating:

A) $\|A\| = \sup_{\|x\|=1} \|Ax\|$, B) $\|A\| = \sup_{x \neq 0} \frac{\|Ax\|}{\|x\|}$,

C) $\|A\| = \inf_{\|x\|=1} \|Ax\|$. D) $\|A\| = \inf_{\|x\|=1} \frac{\|Ax\|.}{\|x\|}$

6. Quyidagilar ichidan to‘g‘ri tasdiqlarni ajrating:

A) Operatorlarni qo‘shish kommutativ.

B) Operatorlarni ko‘paytirish kommutativ.

C) Operatorlarni ko‘paytirish assotsiativ.

D) Operatorlarni bo‘lish kommutativ

7. Quyidagilar ichidan to‘g‘rilarini ajrating:

A) $\|A+B\| \le \|A\| + \|B\|$, B) $\|A \cdot B\| \le \|A\| \cdot \|B\|$,

C) $\|A \cdot B\| = \|A\| \cdot \|B\|$, D) $\|A \backslash B\| = \|A\| \backslash \|B\|$

8. $C[-1,1]$ fazoda normasi 1 bo‘lgan operatorlarni ko‘rsating.

A) $(Af)(x) = x f(x)$ B) $(Bf)(x) = f(x)$

C) $(Cf)(x) = 0$. D) $(Af)(x) = f(x)$

Ushbu test bo‘yicha to‘g‘ri javoblar soni c=16 bo‘ladi. Talabaning test topshiriqlariga javobi quyidagicha bo‘lgan deb faraz qilaylik: 1. B,C; 2. B,C; 3.B,C; 4. A,D; 5. B,C; 6. A,C; 7. D,C; 8. B,D. U holda Talaba yozgan javoblarni to‘g‘ri javoblar bilan solishtirganimizda quyidagi hol kuzatiladi.

Savollar tartibi	1	2	3	4	5	6	7	8	Jami
Noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javoblar	C	-	C	-	C	-	D,C	D	6
Ko‘rsatilmagan to‘g‘ri javoblar	A	-	A	-	A	-	AB	A	6

Demak, noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javoblar va aniqlanmagan to‘g‘ri javoblar soni bir xil, ya’ni 8 ga teng bo‘ladi. Talabaning javobi bo‘yicha topshiriqda noto‘g‘ri ko‘satgan javoblari –a va topshiriqda ko‘rsata olmagan to‘g‘ri javoblari soni - b bo‘lib, ya’ni umumiy xatolar soni a+b=12 ga teng bo‘ladi. Talabaning javobini 100 ballik sistema asosida formula bo‘yicha baholaymiz. U holda talaba

$$x = \frac{32-(6+6)}{32} \cdot 100 = \frac{2000}{32} = 62{,}5$$ ball to‘plagan bo‘ladi.

Formula bo‘yicha $c - \sum_{i=1}^{n} a_i$ yoki $c - \sum_{i=1}^{n} b_i$ bo‘lganidan testdagi to‘g‘ri javoblar soni 2 ga ko‘paytirilgan. Demak, Talabaning yuqorida keltirilgan test

topshiriqlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bilimi 62,5 ballga teng bo‘ladi. Bu esa talabaning tushunchasi qoniqarli darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. B.Toshpo‘latov, A.Normatov, O.Mavlonov. Ko‘p javobli test savollari bo‘yicha to‘plangan ballarni hisoblash formulasi. Akademik litsey va kasb-xunar kollejlarida fizika – matematika fanlarini o‘qitishni takomillashtirish istiqbollari . Respublika ilmiy- amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. –T.: 75-78 b. 2000 y.

2. Ананьев Б.Г. Психология педагогической оценки. Избранные психологические труды. В 2-х томах, Т.2. М.: «Педагогика», 1980.128-268 стр.

3. Аванесов В.С. Формы тестовых заданий. М.: 1991. 1-33 стр.

4. Mavlonov O.M., Matyaqubova Z.N. Mustaqil bilim olish va bilimni baholashning ko‘p axborotli test uslubi. T.: Universitet. 1995.-56 b.

Ortiqov Oybek Abdullayevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Iqdisodiyot fanlari nomzodi

MARKETING TADQIQOTLARIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, marketing asoslari, bozorni maqsadli segmentlarga taqsimlash, har bir mijozning ehtiyojlarini chuqur o'rganish va ularni maksimal darajada qondirish yo'llari to'g'risida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar. Bozor iqtisodiyoti, marketing, korporativ faoliyat, taklif, boshqaruv, bosqichli marketing, intelekt bozori

Ortykov Oybek Abdullayevich
Chirchik State Pedagogical University,
Candidate of Economics

ANALYSIS OF MODERN APPROACHES IN MARKETING RESEARCH

Abstract. This article discusses the changes in the market economy, the basics of marketing, the division of the market into target segments, the in-depth study of the needs of each customer and ways to satisfy them as much as possible.

Key words. Market economy, marketing, corporate activity, offer, management, level marketing, intellectual market

Kirish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining yangi sharoitida marketingning ijtimoiy-iqtisodiy roli yanada oshdi. Marketing nafaqat

mahsulotlarni sotish san'ati, balki iste'molchilarga qimmatbaho tovarlarni taqdim etish va ularning hayot sifatini yaxshilashdir. Mahalliy tadbirkorlar marketing sohasida yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmaganliklari sababli ishlab chiqarish, savdo va boshqaruv vazifalarini bajarishda turli manbalar ko‘rsatmalariga tayanadilar. Bu korporativ faoliyat samaradorligining pasayishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda zamonaviy marketing qimmatli tizimga aylandi, shuning uchun kompaniyalar bozor segmentatsiyasi masalalariga katta e'tibor berishlari kerak, chunki bozor segmentatsiyasi marketing tadqiqotlarining muhim jihatlaridan biridir. Raqobatdagi muvaffaqiyatning asosiy sharti ham segmentatsiyadir. Ilgari marketing birinchi navbatda mahsulotga e'tibor qaratgan va marketing strategiyalari orqali ko'plab iste'molchilarni jalb qilishni maqsad qilgan. Biroq, bugungi kunda differensiatsiyaning asosiy maqsadiga erishish uchun iste'molchilarning differentsiatsiyalangan ehtiyojlarini qondirish kerak. Hozirgi vaqtda bozor segmentatsiyasi orqali ma'lum bir iste'molchilar guruhiga ega bo'lgan kompaniya va tashkilotlar barqaror rivojlanmoqda. Ularning muvaffaqiyati sababi bozorda yetakchi o‘rinni egallash, bozorni maqsadli segmentlarga taqsimlash, har bir mijozning ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va ularni maksimal darajada qondirish yo‘llarini topishdadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iste’molchilar ehtiyojlarini maksimal ravishda tadqiq etish va avvaldan bilib olish uchun, marketing tadqiqotlariga ko‘p xarajat qilishga to‘g‘ri keladi. Ideal sharoitda iste’molchilarga aynan shu mahsulot yoki uni ishlab chiqaruvchi korxona (kompaniya) ishqiboziga aylanishi kerak, shundagina uni mahsulotga nisbatan yuqori darajadagi ishonchi, yondashuvi haqida so‘z yuritish mumkin: “bugungi kunda barchaga oz bo‘lsada yoqadigan mahsulotlar uchun bozorlar mavjud emas, faqatgina kimgadir juda yoqadigan mahsulotlar uchun bozorlar bor”. Bu o‘rinda davlatimiz rahbarining 2017 yil 7 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish bo‘yicha, “...ishlab

chiqarishni mahalliylashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish” ni ifodalovchi ustuvor yo‘nalishi korxonalarda iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda, xizmatlar ko‘rsatishda katta ahamiyatga egadir [1]. Endilikda korxonalar faoliyatiga innovatsiyalarni kiritish, ular orqali bozorlarni xalq iste’mol tovarlari bilan to‘ldirish, aholi ehtiyojlarini to‘laroq qondirishda marketing tadqiqotlarining roli kattadir. Hozirgi raqobatda yutib chiqishlarining asosiy sharti, ushbu sub’ektlar faoliyatida marketing tadqiqotlarini olib borishdan iborat, chunki bozorda iste’molchilar turli tuman, ularning talab istaklari ham turlichadir. Marketing tadqiqotlari - bu tahlil yordamida iste’molchini va xaridorni ishlab chiqaruvchi hamda xizmat ko‘rsatuvchi bilan bog‘lovchi faoliyat turidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bozor tovar pulga ayirboshlanadigan, sotuvchi o‘z xaridorini topadigan, egalik huquqini almashtiradigan, iste’molchi talabini qondiradigan, harajat qiladigan, foyda ko‘radigan (yoki aksincha, zarar ko‘radigan) sohadir. Tovar bozorini talab va taklif qonunlariga muvofiq faoliyat yurituvchi taqsimlash mexanizmi sifatida ham ko‘rish mumkin. Bu sotuvchilar va xaridorlarni birlashtirish va ular o'rtasidagi savdoni osonlashtirish uchun mo'ljallangan mexanizmdir. Ko'pgina sotuvchilarning fikriga ko'ra, bozor yakuniy mahsulotning potentsial xaridorlari va sotuvchilari yig'indisini ifodalaydi. Zamonaviy tovarlar bozori - bu Filipp Kotlerning g'oyasiga ko'ra, tovarlarni yaratish, taklif qilish va tarqatish orqali shaxslar va shaxslar guruhining ehtiyojlari va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan murakkab, tarkibiy jihatdan tashkil etilgan ijtimoiy va boshqaruv jarayoni [2]. Bu jarayon - “marketing” nomini olgan. Marketing (ingl. market — bozor) – tovarlarni ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga samarali yetkazib berish, shuningdek, ularni sotish uchun qulay sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan boshqaruv, tartibga solish va tadqiqotchilik faoliyati tizimidir. Tovarni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste’molchiga yetkazib berishga yo‘naltirilgan bozor faoliyati sohasini xam

marketingga mansub deb hisoblash mumkin. Bugungi kundagi iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish, islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish sharoitida marketing sohasidagi andozalarni mamlakatimiz ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib hisoblanadi..

Tahlil va natijalar. Marketing – tovarni ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga yetkazib berish, ya’ni xaridorlar talabiga muvofiq ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan har qanday faoliyatdir [3]. Marketingning maqsadi – tovarlar oldi-sotdi jarayonini ilmiy asoslangan va samarali tashkil qilish yo‘li bilan xaridorlar talabini qondirishdir. Shuningdek, marketing bu - tovar va xizmatlar harakatlarining barcha bosqichlarini o‘z ichiga oluvchi, talab va taklifni o‘rganish, mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha dasturini yaratish, sotish va iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagi xizmatlar ko‘rsatish va iste’moldan chiqqandan keyin qayta ishlashni tashkil qilish kabi bozor muammolarini yechishda yaxlit tizimli yondashishdir. Marketing faoliyati doimiy yangilanib boruvchi marketing sikli shaklida aks ettirilishi mumkin.

Doimiy yangilanib boruvchi marketing sikli biznesda marketingning roli shu bilan belgilanadiki, marketing tovar ishlab chiqarish va sotishning potensial imkoniyatlarini ochib beradi, muqobil tovar siyosatini ishlab chiqadi, bozorni egallab olish va raqobat kurashi yo‘nalishlarini belgilab beradi, talabni rag‘batlantirish uchun vositalar to‘plamini taklif etadi.

Marketing tadqiqotlari ma’lumotlarni guruhlash, ularni qayta ishlash, saralash, birlamchi ma’lumotardan foydalangan holda ikkilamchi ma’lumotlarni shakllantirish, marketing xizmatlari va korxona rahbariyati uchun ularning buyurtmalari bo‘yicha bajariladigan baholash va bashorat hisob-kitoblariga aytiladi. Marketing murakkab, vaqt bo‘yicha iyerarxik strukturalangan jarayonni ifodalaydi, unda tadqiqotchilik faoliyati muhim rol o‘ynaydi.

Marketing tadqiqoti yoki marketing axborot-tahliliy ta’minoti marketing faoliyatining ajralmas bir qismidir. Axborot va uning tahlilini marketingdan

